


Volume 1, Issue 9, December-2023

 Academia One Publishing
ISSN (E): 2810-6393

DIVERSITY RESEARCH


ACADEMIA ONE
PEER REVIEWED JOURNALS
Chile, South American Continent

Journal of Analysis and Trends

Open Access
Peer Reviewed




All Languages
Accepted

 <https://academiaone.org>

 editor@academiaone.org

6. Мамлакатимизнинг стратегик тарақиётини таъминлашда Янги Конституциянинг роли
Суюнов Дилмурод Холмуродович, Кайтаров Воҳид Раимкулович
25-29
7. Professional Activity Based on An Integrative Approach
Pedagogical-Psychological Diagnostic of Preparation Basics
Mexro'zbek Muxtorjon o'g'li Jo'raboyev, Tursunova Zulxumor Jobir qizi
30-32
8. Developing a Model of Monitoring Innovative Activity in Pedagogical Colleges
Mexro'zbek Muxtorjon o'g'li Jo'raboyev, Tursunova Zulxumor Jobir qizi
33-35
9. Корхоналарнинг Молиявий Барқарорлигини Таъминлашнинг Инновацион Модели Ва Ундан Фойдаланиш Имкониятлари
Муфтайдинов Бобур Қиёмитдинович
36-42
10. Animal Cruelty in The Example Of Black Beauty Novel By Anna Sewel
Isoqova Madina Tohir qizi
43-49
11. O'zbek Asarlarida Sher Zoosemizmi
Toirova Umida Sobirovna
50-57



O‘zbek Asarlarida Sher Zoosemizmi

Toirova Umida Sobirovna

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasini o‘qituvchisi
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek asarlarida misollar yordamida sher zoosemizmlarining tildagi o‘rni, boyitish manbalari, mavzuiy tasnifi ko‘rsatilgan, uning turli tasniflari dalillangan. Zoosemizmning o‘ziga xos xususiyatlari sanab o‘tilgan, hamda sher zoosemizmlarning izohi berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Zoosemizm, zoonim, leksik qatlam, hayvon metaforasi, konseptual metaforik nazariyasi.

Kirish:

Zoonimlar lingvistik elementlarning bir qismi sifatida ham denotasion, ham konnotasion tarkibga ega. Denotatlar inson his – tuyg‘ularidan kelib chiqadigan konnotasiyalar va ularning referent ma‘nolarini ifodalaydi.

Zoonimlar tilda eng muhim leksik qatlamlardan biri bo‘lib, kishi xulq– atvori, his–tuyg‘ulari, holatlari hayvonot dunyosi bilan solishtiriladi[1].

F.A.Litvin tarkibida *zoonim* ishtirok etgan frazeologik birliklar¹ni ham ijobiy, ham salbiy ma‘noga ega, degan g‘oyani taklif etib, ularni quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Salbiy ma‘noli *zoonim* tarkibli FBlar: *as cross as a bear* – ayiqdek g‘azablangan;
2. Ijobiy ma‘noli *zoonim* tarkibli FBlar: *carry one’s bat* – g‘olib bo‘lmoq, *take the bull by the horns* – qat‘iy jasorat bilan harakat qilish, qiyinchiliklarni yengish;
3. Neytral ma‘noli *zoonim* tarkibli FBlar: *run like a deer* – tez yugurmoq

Metodlar


Gustaf Shtern *hayvon metaforasi* haqidagi fikr – mulohazasini “Ma‘no va ma‘no o‘zgarishi” nomli asarida bayon etadi. Uning ta‘kidlashicha inson xususiyatlarini tasvirlashda hayvon nomlari, haqoratomuz apellyatsiyalar (nomlar) va tanqid yoki nafrat qilinadigan so‘zlar bilan ifodalanadi[2].

Zoosemiya termini birinchi marta 1971 yilda ukrainalik leksikolog N.M.Rayevska tomonidan kiritilgan. U inson xususiyatlari va sifatlarini tasvirlashda hayvon nomlaridan metafora sifatida foydalandi[3].

Zoosemiya so‘zi yunoncha *zoo* – hayvon va *sema* – ma‘no so‘zlaridan kelib chiqib, “hayvonlar ma‘nosi” degan tushunchani anglatadi. I.L.Lasota zoosemiya termini tor ma‘noda hayvonot olami bilan mavzu jihatdan bog‘liq leksik birikmalarni ifodalashda qo‘llanilishini ta‘kidlaydi[4].

Zoosemiya kishilarga nisbatan ishlatiladigan bir qator leksik birliklar va elementlarning yaratilishi jarayoni bilan bevosita aloqador, hayvonlar bir vaqtning o‘zida turli xil xislatlarga

¹ Фразеологик birliklar кейинги ўринларда ФБ деб кўрсатилади



ega mavjudotlar sifatida qabul qilinadi hamda kimnidir masxara qilish, undan nafratlanish yoki unga tuhmat qilinganda hayvonlar olami bilan bog'liq leksikaga murojaat qilinadi. M.Basaj tomonidan ta'kidlanganidek, *zoosemiya* motivi zamirida psixologik parallelizm yotadi, ya'ni inson va uni o'rab turgan atrof- muhit o'rtasida turli o'xshatishlar mavjud. O'z navbatida, qiyoslashning semantik shartlanishi so'zlovchining intensiv va baholovchi tarzda insonning ajralib turuvchi xususiyatlarini ta'kidlash maqsadidan kelib chiqadi. Tirik mavjudotlar yoki ularning ayrim guruhlari bizning idrokimizda real yoki xayoliy stereotipik konnotasiyalar bilan bog'langan, bu esa modelni, ya'ni tasvirning asosini tashkil etuvchi taqqoslash elementini tanlashni tezlashtiradi, deyishga asos bor[5].

J.Lakoff va M.Turning CMT – conceptual metaphoric theory, ya'ni konseptual metaforik nazariyasida metafora tasavvur qilinganidan ham ancha kengroq, sof lingvistik birlik tarzida emas, balki konseptual metafora sifatida qat'iy yo'nalishli hodisa, deb belgilanadi[6].

Zoosemiya zamonaviy adabiyotda hayvonlarning laqabi sifatida tushuniladi, ya'ni hayvonlarning nomlari ko'pincha insoniy fazilatlarini ifodalash uchun ishlatiladi[7].

F.J.Sornton ingliz tilidagi *good* va *evil* so'zining tahlilida yaxshi va yovuz odamlar uchun ishlatiladigan hayvon semantikasini sinchkovlik bilan tadqiq etishni taklif qiladi. Olimning tadqiqoti natijalari kishilarga nisbatan turli xil metaforik iboralarda qo'llaniladigan nomlar ichida sutemizuvchi hayvonlar nomi yetakchilik qilib, katta guruhni tashkil etishini namoyon etadi. Jumladan, sutemizuvchilar nomlari – 51 ta, hasharotlar – 8 ta, sudralib yuruvchilar – 8 ta, qushlar – 8 ta, baliq – 7 ta, araxnidlar – 3 ta, amfibiyalar – 3 ta, qisqichbaqasimonlar – 2 tani tashkil etgan.


Raqamlar ingliz tarixiy *zoosemiyasida* sutemizuvchilar turkumiga aloqador leksik birliklar miqdoriy jihatdan ustunlik qilganini aniq ko'rsatib turibdi. F.J.Sornton kishilarning ko'pincha sutemizuvchilar toifasi bilan birga berilishi, asosan, ularning umumiy o'xshashligi borligida va insoniyatga yaqinligi sababli yuzaga kelgan, deb hisoblaydi[8].

Sh.Ch.Xsiehni nemis va xitoy tillarida hayvonlar metaforasini atroflicha o'rgangan. Muayyan jamiyat aholisining fikrlash doirasi va madaniy o'ziga xosligiga aloqador bo'lgan *zoosemik metaforalarning* aksariyati tegishli hayvonlarning tashqi ko'rinishi, xatti – harakati yoki xarakterining konseptual o'lchamiga qarab tuzilgan[9].

Kundalik hayotda inson xarakteri, xulq – atvori va tashqi ko'rinishini tasvirlash uchun hayvon nomlaridan foydalanib, bir– biriga murojaat qilish ko'plab kuzatiladi. Bunday hayvon leksemalari orqali munosabat bildirish *zoosemiyaga* misol bo'la oladi.

Natijalar

Sher *zoosemizmi* shijoatli, qo'rqmas, botir, sadoqatli, hamla qiluvchi, ilmga chanqoq talaba, suyanchiq, g'azabli degan mazmunda kelsa, A.Navoiy siymosi orqali sher *zoosemasida* esa turk tili va Navoiy siymosi qiyoslangan. Chunki Navoiy turk tilining asoschisi va himoyachi bo'lib, tilni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan. Bobur so'zining asl ma'nosi sher degan tushunchani ifodalab kelishi alohida ta'kidlanib, uning sherpanjaligi uning kuchli va jasoratligini dalillab kelgan. Akbarshohning Jodhaga bo'lgan muhabbati tufayli uning yuragidan o'z sevgisiga bo'lgan sadoqat va vafodorlikni aynan sher nomli hayvondan o'rnak olishlik kabi mohiyatning aks ettishi ham alohida o'rin egallaydi. Umuman olganda sherdagi



botirlik,jasoratlilik,o'z juftiga vafodorlik,yelkadosh,ilmga intiladigan talaba kabi semalar inson xarakter xususiyatlari belgilab bersa, sher zoosemizmi turk tili timsolida ham ishlatilar ekan.

Munozara

Sher botir, jasur, shijoatli, sadoqatli, qo'rqmas va mard, suyanchiq, ilmga chanqoq, tolibi ilm sohibi, g'azabli, xatarli kabi ramziy ma'nolarda ishlatilgan.

Kesak otib arslonlarni yengmakchi bo'lgan galvarlarning ishiga kulgim qistaydir[10].

O'rda arbobi bu kun peshindan biroz ilgariroq mujassam bir vijdon, tog'yurak bir yigit va o'lim sari kulib kelguchi arslonni o'z tarixida 1 chi martaba ko'rdi va tong ajabda qoldi. Bu ulug'jasorat bir necha daqiqalarg'acha zulm itlarini sukutka oldi, ularni ishdan to'xtatdi[11].

Qodiriy nazdida arslonning dushmanlari go'yoki, unga kesak bilan hamla qilgandek, arslonlarga arslonlarcha jang qilish kerakligi uqtirilib, ularning ustidan kulib qo'yadi. Arslon jang san'atidan xabardor bo'lgan jangchilar munosib.

Anvarning arslon yurakli yigit ekanligini, O'rda arbobi o'ylar ekan, tarix sahifalarida hali hech kim dil bog'lab, o'lim sari kelmagan va bunday ish tarixda birinchi marta bo'lganidan hayratlandi, hamda uning jasoratiga va arslonligiga tan berdi. Anvarning qo'rqmasligi arslonga qiyoslanmoqda.

Usta Alim so'zi: Ammo arslon yuraklik Otabek hambadbaxtni shundog' yanchib tashladikim, bu juda oz kishilar qo'lidan kelaturg'on ishdir[12].

Bunday odam jang boshida jasoratda sherga, jang o'rtasida sabr– bardoshda filga, jang oxirida gazab– u qaxrda ajdaxoga aylanur[13].

Otabekning arslonlarga xos xususiyati, sha'ni va obro'yini himoya qilishda qo'l keladi. Chunki u yakka o'zi dushmanlarga sherdek hamla qilib ularni qirib tashladi. Arslon yuraklilik esa qo'rqmaslik ramzidir.

Sherdagi shijoatlilik birinchilardan bo'lib jang maydonida shijoatini namoyon etadigan insonlarni sher kabi shijoat sohiblari deyish mumkin. Chunki bunday g'ayrat faqatgini sherlargagina xos bo'ladi.

Biz Akbaralini mingboshini Miryoqubdan ko'ra odamroq deb bilamiz – Nega shunday bo'ladi?– Nega –Miryoqub Sherday o'kiradi[14].

Bilagingizda kuch ko'p, amirzodam! Sherpanjasiz! Podshoh hazratlari sizni Bobur deb ataganlari bejiz emas. Bobur arabcha sher demakdir[15].


Akbaralida odamiylik va odamgarchilik kuchli. Miryoqub esa Akbaralidan farq qiladi, sher kabi o'kiradi ya'ni u g'azablansa, sher kabi hamla qilishi nazarda tutilgan.

Boburning panjalari sherga o'xshagani va uning ismining asl ma'nosida ham sher mazmunining borligi uning sherdek kuch – qudrati borligidan dalolat beradi.

Bu tilning, she'rning sheri mudofaa qilar ekan, yana qaysi mard aksin isbot qilur– dedi Boyqaro[16].

Basharasi odam qiyofasiga o'xshab ketgan sher...Bo'ynida ikki tomonga yo'g'on zanjir tortilib,uchlari 2 qoziqqa bog'langan. Ammo Zanjirband sher "mag'rur". Haydar kirdi. "A.Navoiy hazratlari zanjirda"[17].

Til millat ko'rki hisoblanib, bir tilda yaratilgan she'rni o'z muallifigina himoya qila oladi, Xusayn Boyqaro haqiqiy shoir o'z she'rini, mudofaa qilib, sherligini isbotlaydi va jasoratini namoyon etadi[18].



Keltirilgan parchada Navoiyning musavvirlik san'atidan boxabarligini, zerikkan chog'larida rassomchilik bilan shug'ullanishi tasvirlangan. Biroq parchada zerikkandan siqilib, qo'lga olingan mo'yqalam kuchli bir chizgilarga jonli ifoda baxsh etdi. Navoiy o'zini Zanjirband sher timsolida ifodalab, Husayn Boyqaro atrofidagi tulkidek ayyor va ilondek shoh qo'yniga kirib olgan ba'zi saroy ayonlari tomonidan qilingan fitna— yu fasod Alisher Hazratlarini zanjirlab qo'ygandek tuyulardi. Sher mard, qo'rqmas va sadoqat timsolini ifodalaydi.

A.Navoiy zanjirbandligi ifodalangan ushbu misoldan uning jismi bo'ysunuvchanligini, qalbi esa o'zi tanlagan haq yo'li tanlashini anglash mumkin. Suhbat jarayonida Behzod sherning bo'ynidagi zanjir uzilganini tasvirlaydi. Yozuvchi bu bilan A. Navoiyning mansabdan ketib, ozod va kamtar inson sifatida o'z vatanida istiqomat qilganligini ta'kidlagan. Ikki tomondan tortilgan zanjirlar unga qilingan tuhmat va ig'volar timsoli edi.

Zanjirband sher ma'nosini chuqurroq o'rganish maqsadida, bir nechta adabiy va tarixiy manbalarga murojaat qildik. O'tauli taxallusi bilan nom chiqargan R.O'tauli tomonidan yozilgan *Zanjirband sher* hikoyasi diqqatimizni tortdi.

Xudoga shukur, u Turon sheri! Sher bo'lib tug'ilgan, sher bo'lib yashadi, sher bo'lib o'ladi! Nachora, zanjirband sher bo'lib o'lish manglayida bor ekan, shu topda shu alfozda o'lsa o'ladi, lekin hech kimga bo'yin egmaydi[19].

Sherning na'rasi, vajohati qanchalik kuchli va qo'rqinchli bo'lmasin, u na'ra tortishni, na to'lg'onishni bilardi. Dushmanga tulkidek ayyorlik, ilondek tilyog'lamalik qilmadi, Turonning qoplani, arsloni, yo'lbarisi mardu maydoni tarzida sherdek tug'ilib, sherdek yashagani va sherdek mardlarcha nomardlar qo'lida o'lishini tan olgan.

Turon hoqoni Alp Er To'nga nomi sher semasi orqali jasorat egasi haqida tarixchilar, ijodkorlar va yozuvchilar asarlarida o'ziga xos bir xususiyat bilan tilga olinadi.

Sherlar og'izlaridan vahshat sachratadi, gulzorni boshiga ko'trib o'kiradi. Ohular qo'rqinchli mahluqlarga hadik ila tikilishadi, javdirishadi, hatto qorachiqlaridagi qo'rquv uchqunlarigacha yiltirab ko'rinadi. Sherlar vajohatida vahshiylik qanchalik kuchaytirilgan bo'lsa, ohular siymosida beozorlik shunchalik mayinlashtirilgan edi[20].

Beozor jondorlarga tashlanayotgan sherlar panjaralari, ko'zlaridagi vahshat va qudrat falakka sig'maydi. Kiyiklar hatto illohiyot hukmini tan olmaydigan sherlar chovutiga ilinmaslik uchun talvasa ichra bog'to'riga chopishadi[21].


Samarqqanddagi madrasa peshtoqida sher aksi tushirilgani uchun Sherdor deb nomlangan. Sherdor madrasasi Samarqandning o'sha davrdagi hokimi Bahodir Yalangto'sh amri bilan qurdirilgan. Madrasa peshtoqidagi Sher, Ohu va Quyosh tasvirlarining ma'nosi shuki, quyosh shamsiy yilining beshinchi oyi — asad (sher), o'ninchi oyi esa jaddiy (kiyik— ohu)dir. Tasvirdagi kiyik yoki ohu tasviri a bilim va ilmni, kiyik ketidan quvlagan sher ilm toliblarning bilimga bo'lgan intilishini ifodalaydi. Sherlar ohularni yeyish maqsadida qanchalik tez harakatlanishsa, ilm sohiblari ilmni shunchalik tez o'rganishlari lozim. Madrasada sher kiyikka chanqoq bo'lgani kabi, bilimga chanqoq insonlar tahsil olishgan deb aytish mumkin.

— *Balli, sherqiz!* — deb qarsak chaldi.

— *Eshitingizmi?* — dedi. — *Hazrat onam sizga «sherqiz!» deb tahsin aytdilar.*

Xonzoda begim Hamidaning tutgan yo'lini ma'qullab:

— *Shoshmaganingiz ham ma'qul,* — dedi. — *Inshoollo, sherqizga munosib arslon yigit uchrab*



qolgay.[22]

Hamida begim talpinib Akbarning oldiga bordi– yu, uning yelkasidan quchdi:

— Bolajonim, botirlar avlodidansiz, sizning sherdil yigit bo‘lishingizga ishonchim komil! [23]

Tarixiy romanlarda jasur va mard insonlar qo‘rqmas, jasur xatti– harakatlari sherga o‘xshatilgan. Hamidabonuning barcha jang san’atidan xabardorligidan hayratlanib, Xonzoda begim uni sherqiz deb ataydi va bunday sherqizga faqatgina arslongina munosibligini tan oladi. Akbarning ham sher kuchi va irodasi borligini bilgan Xonzodabegim uni hech kim va hech narsadan qo‘rqmaydigan dovyurakligini, mardligini, botirlar avlodidanligini ta’kidlab, uni sherdil ya’ni sher yurak, baquvvat va qo‘rqmas tabiatli inson deb ta’riflaydi. Sher semasi kuchli, jasur, yuragida o‘ti bor qo‘rqmas insonlarni anglatadi.

Otalig‘i unga doim: Yog‘iyini g‘aflatda qoldirib, sherday pusib borishga o‘rganing! deb ta’lim berardi[24].

Akbar davlatni va hokimiyatni asrash choralarini, uxlamasdan o‘ylab chiqdi. U dushmandan qutulish yo‘llarini izlar ekan, dushmanga qanday zarba berishni, otalig‘ining sherdek jimgina hamla qilib, dushmanni nochor ahvolda qoldirishni o‘rganing deb bergan maslahatlarini eslaydi. Sher zoosemasida sherdek pusib, birdaniga dushmanga zarba berish xususiyati berilgan.

Siz esa insonsiz. Insonlardagi juftlik arslonlarga o‘xshashdir. O‘rmonda arslonlarni ko‘rgansiz. Ota sher ona sherga qanchalik mehribon, qanchalik sodiq! Ana shu tufayli irsiyat gavhari bir muqtaga jam bo‘lib, avloddan avlodga butun o‘tgay, so‘ng ota– onasiga munosib sherlar tug‘ulgay. Sizning ota– onangiz Sind o‘lkasida, Tar sahrosida bir– birlariga sherlarchla mehr– u oqibat ko‘rsatganlari uchun siz ham sherbachchaday sog‘lom, ko‘hlik, dovyurak bo‘lib tug‘ulgansiz[25].


Tarix manbalaridan ma’lumki, Akbar Jodha Bayni jonidan ortiq yaxshi ko‘rardi. Jodha ham sevgani uchun uni boshqa ayollardan rashk qilardi. Asarda insonlar oilasi arslonlar oilasiga o‘xshatilib, erkak sherning urg‘ochi sherga mehribonligi va g‘amxo‘rligi ifodalangan. Juftlikning sadoqati avloddan– avlodga o‘tib, ulardan o‘zlariga o‘xshagan juftiga sodiq bo‘lgan sherlar tug‘iladi. Ular ham avlodlari sha’niga mos ishlarni qilishadi. Sher semasi yoriga vafodorlik ramzini ifodalaydi. Jodha ham Akbarni arslonga o‘xshashini istardi va kundoshlardan qutqarishini, vafodorlik qilishini juda xohlardi. Biroq buni uddasidan chiqish juda qiyin edi.

Uning chap yonida Abdulfazl va roja Birbal o‘ltirgan paytda qirq besh yoshlardagi barvasta, shertaxlit Muzaffar Husayn mirzoni olib keldilar.

Akbarga fidoyilik qilish qanchalik qiyin ekanini xayolidan o‘tkazdi. Podsho bilan sherga yaqin bo‘lish hamisha xatarlidir, degan hikmatli gap bejiz aytilmaganini u endi astoydil sezmoqda edi[26].

Ushbu parchada, Muzaffar Xusaynning xatti– harakati sherga qiyoslanadi. Uning baquvvat gavdasi, harakatlari shertaxlit so‘zi orqali ishora qilinadi. Akbarni sherga qiyoslash, uning jasoratidan hayiqish, u bilan ko‘p ham yaqin bo‘la olmaslik, unga qancha fidoyilik qilmasin, u birdan hamla qilishi mumkin. Sher semasi bu o‘rinda xavf– xatarni bildirib kelgan .

Kuchuk bola o‘z uyida sher, deb yurgan Abuja’far hazratlari Alp-Arslonning necha bor o‘limdan qolib, qon kechib kelganini bilsa ham bilmaslikka olardi[27].



Ba'zi insonlar birovga tilyog'lamachiligi bilan muomala qilishini xush ko'rishadi. Alp – Arslon yurt sha'ni va tinchligi uchun o'z hayotini xavfga qo'yganini sezgan Abuja'far hamma ham o'z uyida sher, ya'ni hamma o'z vatanida jasurligini ko'rsatadi, hatto it ham shunday qilardi deb mulohaza yuritadi. Sher o'z uyidagina botirlik ko'rsatadi, degan ma'no anglashiladi.

Qilichu otga ishqiboz, ularning har biri bir sher[28].

Xazrat Sohibkiron sherday dushmanlarini quvishga boradilar!..» «Sherday bosib boradilar, ular tovuqday pisib qochib qoladilar![29].

Yigitlar sherga qiyoslanadi. Botir va kuchli yigitlar jang maydonida dushman oldiga tik turib qarshi kurashadi. Jasoratli va qo'rqmas yigitlarning har biri sher ramzida ifodalanadi.

Sherday jasorat qo'rqmas va mard insonlagagina xos. Sher o'ljasini qo'ldan chiqarmaslikka urinsa, sohibqiron dushmanni yengmaguncha tinchimaydi. Sher semasida dushmanga qarshi bostirib borish uni yakson etish tushunchalari mavjud.


Qayoqlarda tentirab yuribsan Arslonimdan judo bo'ldim[30].

Eng yaqin insoni, uni doimo himoya qilib turadigan, ishongan tog'i va suyangan insoni jufti – haloli aynan arslonga o'xshatildi. Arslon semasi ishonsa bo'ladigan, himoya qila oladigan insonga nisbatan qo'llaniladi.


Demak, o'zbek romanlarida mushuk yuvosh va beozor, erkalashni xush ko'ruvchi, shu bilan birga qallob, og'ri, aldoqchi, lo'li, qo'rqoq, nomard, ayollarga nisbatan yengiltak ma'nolarini anglatib keladi. It zoosemizmi johil, malay, zulmkor, rahmsiz, vatanfurush, qaysar, xaromxo'r, iymonsiz, qopag'on, vaysaqi kabi salbiy ma'nolarda qo'llanilgan. It zoosemizmi qo'llanilgan iboralar xo'rlash xususiyatini bildirib, insonlarni kamsitish va tahqirlashda ishlatilgan. Bo'ri zoosemizmi soddadil, yovqur, ziyrak, xushyor kabi ijobiy xususiyatlarini tasvirlab kelsa, tajovuzkor, qonxo'r, shavqatsiz, molparast kabi illatlarni o'z ichiga oladi. Sher semasida shijoatli, qo'rqmas, botir, sadoqatli, hamla qiluvchi, ilmga chanqoq talaba, suyanchiq, g'azabli degan mazmunda kelsa, A.Navoiy siymosi orqali sher qiyoslangan. Chunki Navoiy turk tilining asoschisi va himoyachi bo'lib, tilni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan. Mushuk, bo'ri, sher, it zoosemizni nafaqat xarakterni tasvirlab keladi, balki hayvonlar xatti– harakati, holatini, ularning tashqi ko'rinishni ham ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сакаева Л.П. Характерные особенности использования компонентов зоонимов во фразеологизмах, пословицах и поговорках русского, английского, татарского и таджикского языков . – Санкт-Петербург: Вестник Санкт-Петербургского Университета,2009. – 140 с.
2. Stern, Gustaf, Meaning and Change of Meaning, Bloomington: Indiana University Press, 1931. – 434.p
3. Egorova A. Hunting Down Animal Verbs,- Germany: University of Potsda,A Master thesis, 2019. – 22 p.
4. Лясота Ю.Л. Английская зоосемия. — Владивосток: ДВУ, 1984. – 198 с .



5. Grzaśko, A. On Zoosemy, Foodsemy and Plantosemy: A Cognitive Approach to Selected Terms of Endearment. – Poland: *Studia Anglica Resoviensia*, 2017. pp. 29–43 .
6. Lakoff, George and Mark Turner. More than Cool Reason. A Field Guide to Poetic Metaphor. – Chicago: The University of Chicago Press, 1989. – P. 22
7. Kiełtyka, R. and G.A. Kleparski. “The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English”. – Slovakia: *SKASE Journal of Theoretical Linguistics*. 2005. – 34 p.
8. Kiełtyka, R. and G.A. Kleparski. “The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English”. - Slovakia: *SKASE Journal of Theoretical Linguistics* 2. 2005. – 22 p.
9. Lucija Kovačić Zoosemy and Gender Stereotyping: A Corpus Analysis of Six Pairs of English and Croatian Lexemes –Zagreb: 2018. – 18 p.
10. А.Қодирий “Меҳробдан чаён”. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994 йил. –204 бет.
11. А.Қодирий “Меҳробдан чаён”. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994йил. – 262 бет.
12. А.Қодирий “Ўтган кунлар”. –Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. – 250 бет.
13. Муҳаммад Али “Улуғ салтанат” –Тошкент: Шарқ нашриёти, 2003. –441 бет.
14. А.Cho‘lpon “Kecha va kunduz”. –Toshkent: Yangi nashr, 2019 yil. –125 bet.
15. P.Qodirov “Yulduzli tunlar”. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018 yil. –32 bet.
16. Oybek Navoiy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019 yil. –358 bet.
17. Oybek Navoiy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019 yil. –405 bet.
18. Oybek Navoiy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019yil. – 405 бет.
19. А.Дилмурод “Шердор”. –Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 1986 йил. – 44 бет.
20. А.Дилмурод “Шердор” . – Тошкент :Ўзбекистон нашриёти, 1986 йил. –161 бет.
21. P.Qodirov “Avlodlar dovoni” . –Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018 yil. –6 bet.
22. P.Qodirov “Avlodlar dovoni” –Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018 yil. –179 bet.
23. P.Qodirov “Avlodlar dovoni”. –Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018 yil. –192 bet .
24. P.Qodirov “Avlodlar dovoni” . –Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018 yil. –231 бет.
25. П.Қодиров “Авлодлар дово̀ни”. – Тошкент: Ёшлар нашриёти, 2018 йил. –259 бет.
26. Мирмуҳсин “Турон маликаси” . –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва Санъат нашриёти, 1997йил. –26 бет.
27. Мирмуҳсин “Турон маликаси” . – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва Санъат нашриёти, 1997. – 27 бет.
28. Муҳаммад Али Улуғ Салтанат . – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти , 2014. –45 бет.
29. С.Ахмад “Уфқ” . – Тошкент : Ғ.Ғулом Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976 йил. – 276 бет.



-
30. Toirova, U. (2021). Maqollarda Zoosemizmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi talqini. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1953
 31. Toirova, U. (2022). Analysing of Cat Zoosemy in the Uzbek and English Works. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 14(14). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/68
 32. Toirova, U. (2023). THE DESCRIPTION OF LION ZOOSEMY IN UZBEK'S NOVELS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9751
 33. Toirova, U. (2021). The interpretation of zoosemy through the symbol of Monkey in the stories of N.Eshonqul "Maymun yetaklagan odam(The Man Leading the Monkey) and W.W.Jacob's "The Monkey's Paw" Toirova Umida Sobirovna A teacher of English literature department Bukhara. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1952
 34. Toirova Umida Sobirovna. (2023). THE DESCRIPTION OF LION ZOOSEMY IN UZBEK'S NOVELS. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 11, 36–45. Retrieved from <https://americanjournal.org/index.php/ajrhss/article/view/580>
 35. Rakhimovna, R. D. (2023). PSYCHOLOGY IN LITERATURE. Open Access Repository, 4(03), 275-278.
 36. Mukhsinova, Akhmedova Dilsora. "Meaning Structure of Moving Verbs in English and Uzbek." *Journal of Pedagogical Inventions and Practices* 8 (2022): 162-164.